I. XIZMATLAR

2026- yil 1-iyul holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida 14 405 ta korxona va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

2026- yil 1- iyul holatiga korxona va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi, % da
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



Xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining 11 968 tasi yoki 83,1 foizi kichik biznes sub‘ektlarini tashkil etadi.

2026- yil yanvar-iyun oylarida **bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari** bo‘yicha hajmi 16 083,2 mlrd. so‘mni yoki 2025- yilning yanvar-iyuniga nisbatan o‘sish 118,9 foizni tashkil etdi.

Navoiy viloyatida ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi va o‘sish sur’atlari

	Jami xizmatlar hajmi (mlrd. so‘m)	*O‘sish sur’ati, % da*	*Axoli jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi (ming so‘m)*	*O‘sish sur’ati, % da*	*shundan,*		
					Kichik biznes xajmi (mlrd. so‘m)	*O‘sish sur’ati, % da*	*Ulushi, % da*
Jami	**16 083,2**	**118,9**	**14 421,8**	**117,1**	**9 403,4**	**116,9**	**58,5**
Navoiy sh.	3 617,7	126,9	21 020,9	123,7	2 043,7	122,2	56,5
Zarafshon sh.	1 291,0	125,3	14 002,6	123,5	631,8	121,1	48,9

davomi

	Jami xizmatlar hajmi (mlrd. so‘m)	*O‘sish sur’ati, % da*	*Axoli jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi (ming so‘m)*	*O‘sish sur’ati, % da*	*shundan,*		
					Kichik biznes xajmi (mlrd. so‘m)	*O‘sish sur’ati, % da*	*Ulushi, % da*
G‘ozg‘on sh.	82,1	119,0	8 647,1	117,7	40,0	119,2	48,6
Karmana t.	1 987,3	119,9	13 667,7	117,4	1 058,8	122,2	53,3
Konimex t.	3 27,4	119,6	8 897,9	120,6	187,8	112,4	57,4
Qiziltepa t.	1 152,5	119,5	6 872,3	117,7	710,2	121,1	61,6
Navbahor t.	786,5	119,7	6 322,3	118,4	483,7	136,9	61,5
Nurota t.	557,6	119,4	6 054,6	118,1	337,1	121,9	60,4
Tomdi t.	234,0	164,4	15 295,4	163,3	87,5	114,4	37,4
Uchquduq t.	366,2	119,8	9 177,4	119,5	274,3	125,6	74,9
Xatirchi t.	1 025,0	119,4	4 663,5	118,0	583,5	124,0	56,9



Bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari

	mlrd. so‘m	*o‘sish sur’ati, % da*	*yakunga nisbatan, % da*
Jami xizmatlar	**16 083,2**	**118,9**	**100**
shu jumladan: xizmat turlari bo‘yicha			
aloqa va axborotlashtirish xizmati	547,5	120,0	3,4
moliyaviy xizmatlar	2 387,0	114,1	14,8
transport xizmati	2 215,7	121,1	13,8
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 727,7	123,1	10,7
yashash va ovqatlanish xizmatlari	3 981,6	121,5	24,8
savdo xizmatlari	3 950,8	113,3	24,6
ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar	258,1	106,2	1,6
ta’lim sohasidagi xizmatlar	373,6	121,9	2,3
sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	193,1	121,8	1,2
ijara xizmatlari	130,0	113,4	0,8
kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta‘mirlash xizmatlari	190,4	111,6	1,2
boshqa shaxsiy xizmatlar	315,6	113,4	2,0
Me’morchilik, muxandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	778,5	161,1	4,8
boshqa turdagi xizmatlar	761,1	122,6	4,7

Bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘sish sur’atlari *(2025- yil yanvar-iyuniga nisbatan, % da)*



Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlar (161,1), boshqa xizmatlari (122,6%), ta’lim sohasidagi xizmatlar (121,9%), sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (121,8 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (121,5 %) va transport xizmatlari (121,1 %)da o‘sish sur’ati yuqori bo‘ldi.

Xizmatlar ishlab chiqarish tarkibi

(2026- yil yanvar-iyun oylari, % da)

Xizmatlar tarkibida eng katta ulush yashash va ovqatlanish xizmatlari (24,8 %), savdo (24,6 %), moliyaviy (14,8 %), transport (13,8 %) hamda Me’morchilik sohasidagi xizmatlar (4,8 %)ga to‘g‘ri keldi.

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

	ming so‘m	*O‘sish sur’ati, % da*
Jami xizmatlar	**14 421,8**	**117,1**
shu jumladan: xizmat turlari bo‘yicha		
aloqa va axborotlashtirish xizmati	490,9	118,3
moliyaviy xizmatlar	2 140,4	112,5
transport xizmati	1 986,8	119,3
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 549,2	121,3
yashash va ovqatlanish xizmatlari	3 570,3	119,7
savdo xizmatlari	3 542,7	111,6

	ming so‘m	*O‘sish sur’ati, % da*
ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar	231,5	104,6
Ta’lim sohasidagi xizmatlar	335,0	120,2
sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	173,2	120,1
ijara xizmatlari	116,6	111,7
kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta‘mirlash xizmatlari	170,8	110,0
boshqa shaxsiy xizmatlar	283,0	111,8
me’morchilik, muxandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	698,1	158,8
boshqa turdagi xizmatlar	682,5	120,8

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar 2026- yil yanvar-iyun oylarida 14 421,8 ming so‘mni yoki 2025- yilning yanvar-iyuniga nisbatan o‘sish sur’ati 117,1 foizni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlarning o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’atlari, % da



Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmida yashash va ovqatlanish xizmatlari (3 570,3 ming so‘m), savdo xizmatlari (3 542,7 ming so‘m) hamda moliyaviy xizmatlar (2 140,4 ming so‘m) yuqori ulushni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmida me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlar (158,8 %), boshqa xizmatlari (120,8 %), ta’lim sohasidagi xizmatlar (120,2 %), sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (120,1 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (119,7 %), transport xizmatlari (119,3 %) va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (118,3 %) da o‘sish sur’ati yuqori bo‘ldi.

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi, ming so‘m

Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha Navoiy shahri yetakchi o‘rinni egalladi. Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 21 020,9 ming so‘mga yetdi. Tomdi tumanida 15 295,4 (ming so‘m) Zarafshon shahar (14 002,6 ming so‘m) va Karmana (13 667,7 ming so‘m) tumanida ham boshqa hududlarga nisbatan aholi jon boshiga xizmatlar hajmi ko‘paygan. Xatirchi (4 663,5 ming so‘m) Nurota (6 054,6 ming so‘m) Navbahor (6 322,3 ming so‘m), tumanlarida esa boshqa hududlarga nisbatan aholi jon boshiga xizmatlar hajmi kamligini ko‘rishimiz mumkin.

Xizmatlar hajmida katta ulushga ega bo‘lgan sohalar

T/r	*Iqtisodiy faoliyat turlari*	*Hajmi mlrd. so‘m*	*O‘sish sur’ati, % da*	*Jamiga nisbatan ulushi, % da*
	Jami – xizmatlar	**16 083,2**	**118,9**	**100,0**
1.	**Yashash va ovqatlanish xizmatlari**	**3 981,6**	**121,5**	**24,8**
	shundan:			
	Yashash bo‘yicha xizmatlar	100,4	150,9	2,0
	Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar etkazish bo‘yicha xizmatlar	3 881,2	120,9	98,0
2.	**Savdo xizmatlari**	**3 950,8**	**113,3**	**24,6**
	shundan:			
	shu jumladan:avtomobillar va motosikllar ulgurji va chakana savdosi bo‘yicha xizmatlar; avtomobillar va motosikllarni ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlar	727,2	113,4	18,4
	Ulgurji savdo bo‘yicha xizmatlar (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari)	806,6	115,1	20,4
	Avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo‘yicha xizmatlar	2 417,0	112,6	61,2
3.	**Moliyaviy xizmatlar**	**2 387,0**	**114,1**	**14,8**
	shundan:			
	Sug‘urtalash va nafaqa ta‘minoti bo‘yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar	2 307,5	116,6	96,6
	Sug‘urtalash, qayta sug‘urtalash va nafaqa ta‘minoti bo‘yicha xizmatlar, majburiy ijtimoiy sug‘urtalash bo‘yicha xizmatlardan tashqari	60,1	35,0	2,5
	Moliyaviy va sug‘urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlar	19,4	94,5	0,9
4.	**Transport xizmatlari**	**2 215,7**	**121,1**	**13,8**
	shundan:			
	Quruqlikdagi transport xizmatlari va quvurlar orqali yetkazib berish bo‘yicha xizmatlar	1 739,3	121,4	78,5
	Omborga joylashtirish xizmatlar va yordamchi transport xizmatlari	442,9	118,2	21,0
	Pochta va kurerlik xizmatlari	33,5	102,1	0,5
5.	**Boshqalar**	**761,1**	**122,6**	**4,7**

2026- yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibi



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to‘lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo‘yicha xizmatlar uchun to‘lanadigan haq hisobiga ko‘ra olinadi.

2026- yil yanvar-iyun oylarida savdo xizmatlarining tarkibi



Huddi shunday, savdo xizmatlaring hajmi 3 950,8 mlrd. so‘mga yetib, ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 24,6 foizni tashkil etdi.

Chakana savdo xizmatlari umumiy savdo xizmatlari hajmining 18,4 foizini, avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (ularni ta‘mirlash xizmatlarini qo‘shgan holda) xizmatlari esa 20,4 foizni, ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) 61,2 foizni tashkil etdi.

2026- yil yanvar-iyun oylarida ta’lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi



“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog‘i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta’limni va turli kasblarga o‘rgatishni o‘z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta’lim, shuningdek, kattalar uchun ta’lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta’lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o‘xshash boshqalar kiradi.

Ta’lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o‘qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko‘rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

2026- yil yanvar-iyun oylarida yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar tarkibi

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar tarkibida yashash va oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlar mavjud bo‘lib, 2026- yilning yanvar-iyun oylarida yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlar ustunlik qildi – 121,5 foiz.

Yashash bo‘yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta’minlash bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o‘z ichiga oladi.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo‘yicha qo‘yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o‘z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

2026- yil yanvar-iyun oylarida yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar



2026- yil yanvar-iyun oylarida ijara xizmatlari

2026- yilning yanvar-iyun oylarida ijara xizmatlari hajmi 130,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida 2026- yil yanvar-iyun oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi 113,4 % ni tashkil etdi.

2026- yil yanvar-iyun oylarida ijara xizmatlari dinamikasi



2026- yil yanvar-iyun oylarida ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar

O‘sish sur’ati,
% da



Hajmi,
mlrd. so‘m



Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlarni ko‘rsatishda ko‘chmas mulk bilan bog‘liq operatsiyalar bo‘yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo‘jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko‘chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

2026- yil yanvar-iyun oylarida sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog‘liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko‘rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning 2026-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o‘sish sur’atlari



2026- yil yanvar-iyun oylarida sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi, *mlrd. so‘m*



2026 - yil yanvar-iyun oylarida sog‘liqni saqlash sohasining umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi 1,2 %ni tashkil etdi.